

2017-YIL – XALQ BILAN MULOQOT VA  
INSON MANFAATLARI YILI

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:52 (67113)  
2016-yil  
26-dekabr

www.tongyulduzi.uz  
ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Ushbu sonda:

«Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,  
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st»...

(3-bet)



Qorgiz  
bo'lishni  
istagan  
qizcha

(6-bet)

YILNING  
ENG YAXSHI  
BOKSCHISI

(7-bet)

Yangi yil –  
ezgu orzular,  
quvonch-u shodliklar  
yili bo'lsin!



N. SULTONOV o'lgan suratlar

Bizga maktub yo'llabsiz...

28-dekabr - Mustaqillik va ezigulik monumenti ochilgan kun

## EHTIROM RAMZI

O'zbek xalqi qadimdan mehmondo'st, bolaparvar va g'ururi baland millat hisoblanadi.

Bu xislatlar avlodlardan-avlodlarga meros bo'lib o'taveradi. Ayniqsa, xalqimizning bolalarga mehri o'zgachaligini aytmasizmi? Poytaxtimizning Mustaqillik maydonida Ona va bolaga qo'yilgan haykal hech bir davlatda yo'qligi ko'p marta gapiriladi.

2005-yilning 28-dekabr sanasida Bosh maydonga farzandini bag'riga bosib turgan Ona haykali o'rnatildi va u Baxtiyor ona deb ataldi. Mustaqillik monumenti va Baxtiyor ona haykali, Ezgulik arkasi, oq poyonoz shaklidagi oppoq yo'lak yaxlit bir ansamblni tashkil etadi. Yurtimizda umumxalq bayramlarida, davlat miqyosidagi boshqa

tantanalarda ushbu haykal poyiga gulchambarlar qo'yiladi.

Men ham bu yil «Zulfiyaxonim qizlari» respublika tanlovining tuman bosqichida qatnashdim. Tanlov oldidan ushbu haykal poyiga gulchambar qo'yidik va Baxtiyor ona haykali qoshida ta'zim qildik. Ushbu monument yurtimizda Ona va bolaga bo'lgan hurmat va e'tiborning yuksak ramzidir. Eng salobatti va eng go'zal Mustaqillik va ezigulik monumenti poytaxtimizning ko'riga ko'rk qo'shib turaversin.

**O. TURSUNBOYEVA,**  
Toshkent Matbaa va noshirlik kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi



## XORIJLIK YOSH MUSAVVIRLAR TOSHKENTDA

Hayotda bolalikning beg'ubor olamidanda musaffo manzil bo'lmasa kerak. Bu olamning quvonch-u shodligi qiyosidan ziyod qiyos topilmas.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko'rgazmalar zalida tashkil etilgan xalqaro bolalar rasmlari biyennalesiga tashrif buyurganimizda, yuqoridagi fikrlarga yana bir bor amin bo'ldik. Oltinchi bor namoyish etilayotgan «Toshkent quvonchlari» tadbirida bolajonlarning ona Vatan, tabia, olam va odamlarni o'z nigohlari ila tasvirlagan 3 mingdan ortiq rasmlari namoyish etildi. Tanlov ishtirokchilari orasida Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Singapur, Germaniya, Fransiya, Ruminiya, Latviya, Ozarbayjon, Ukraina singari yigirmadan ortiq mamlakat yosh ijodkorlarining ijodiy ishlaridan bahramand bo'lindi. «Bolalik dunyosi», «Mening Vatanim», «Men yashayotgan dunyo», «Men bilgan O'zbekiston» mavzulari orqali xorijlik tengdoshlaringizning yurtimiz tarixi, qadimiy obidalarimiz, milliy urf-odatlarimiz haqidagi tasavvurlari bilan yaqindan tanishishingiz mumkin. Hamyurtlarimiz Davron Turg'unovning «Bolalik dunyosi», Maftuna Baxtiyorzodaning «Shirinlik daraxti», Dilzoda Valiyevaning «Tuyalar» deb nomlangan rasmlari chet ellik mehmonlarga manzur bo'ldi.



Men «Toshkent quvonchlari» VI xalqaro bolalar rasmlari biyennalesida o'z bayrog'imni ko'rib, yana bir bor xursand bo'ldim. Bu tun dunyo bolalari tinchlik, do'stlik istaydi. Bugungi tadbir ham buning yaqqol misolidir, deydi Bangladeshning O'zbekistonda

dagi favqulodda va muxtor elchisi Musod Mannan.

Har ikki yilda bir marotaba o'tkazilishi an'anaga aylangan «Toshkent quvonchlari» xalqaro bolalar rasmlari biyennalesida ilk bor AQSH, Isroil va Afg'oniston vakillari ham ijodiy ishlari bilan qatnashayotganligi quvonarlidir.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari, Tashqi ishlar, Xalq ta'limi vazirliklari va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur xalqaro tadbir yosh avlodning ijodiy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, yangi iste'dod sohiblarini kashf etishda muhim omil bo'lishi, shubhasiz.

**Feruza SOYIBJON qizi,**  
Noiba INAGAMOVA,

TDSHI qoshidagi Olmazor akademik litseyi o'qituvchisi

## JONKUYAR USTOZIM

Men ustozim Sanobar Quryozovani yaxshi ko'raman. U kishi juda mehribon va talabchandır.

Shu bois biz uy vazifalarini o'z vaqtida bajarib, a'lo baholarga o'qishga intilamiz. Ustozimiz bizning iqtidor va iste'dodimizga qarab turli to'garaklarga yo'naltirganlar. Men «Yosh musavvirlar» to'garagiga qatnashaman.

Sanobar opa bizni erkalab: «Sizlar mening ko'zmunchoqlarim-siz, sizlar bilimdon, a'lochi va odobli bo'lsangiz – mening obro'yim, yuzim yorug'ligi», deyдилar. Yaqinda samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan taqdirlanib, ular «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoniga sazovor bo'ldilar. Barcha sinfdoshlarim nomidan ularni tabriklaymiz.



**Nafosat O'KTAMOVA,**  
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchisi

## Oyding yo'llar sabog'i

Dekabr «Milliy Istiqlol», «Vatan tuyg'usi», «Odobnoma» fanlari oyligi.

Ushbu oylik doirasida turli tanlovlar e'lon qilindi. Jumladan, 5-6-sinflar o'rtasida «Mustaqillik abadiy bo'lsin» nomli rasmlar tanlovi, 7-sinflar o'rtasida «Hushyorlik va ogohlik davr talabi» mavzusida ijodiy ishlar tanlovi, 8-9-sinflar kesimida «Ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyati negizi» mavzusida insholar tanlovi tashkil etildi.

Milliy Istiqlol va ma'naviyat fani ustozimiz Dilbar opa Sayfullayeva 8-«A» sinfida «Ijtimoiy hamkorlik» mavzusida ochiq dars o'tkazdi. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy hamkorlik, uning asosiy maqsadi, ijtimoiy hamkorlikning buzilishi qanday oqibatlariga olib kelishi tarix va bugungi kun misolida yaqqol tasvirlab berildi. O'z navbatida, o'quvchilar ham guruhlariga bo'linib, berilgan savollarga to'g'ri va aniq javob berishdi.

Oylik davomida hali ko'plab ochiq darslar, tanlovlar, festival va ijodiy ish ko'rgazmalari namoyishi ko'zda tutilgan.

**Xolisxon UMAROVA,**  
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

## RISHTONLIKLAR QUVONCHI CHEKSIZ

Mamlakatimizda yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, iste'dodini namoyon etishi uchun zarur sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan ajoyib festival tashkil etildi. Rishton tumanida bo'lib o'tgan yoshlar festivali «Sog'lom fikrli yoshlar – yurt tayanchi» deb nomlandi. El suygan adiblar, san'atkorlar va sportchilar ishtirok etgan mazkur tadbirida so'zga chiqqanlar tuman yoshlarining bugungi kunda ilm-fan, tadbirkorlik, madaniyat va sport sohalarida yuqori natijalarga erishayotganini ta'kidlab o'tdilar.

Festival kunlarida tumandagi 45-umumta'lim maktabining yangi qurilgan sport majmuasi foydalanishga topshirildi. Kitob yarmarkasi, xotin-qizlar o'rtasida voleybol, mahalla yoshlari o'rtasida belbog'li kurash, stol tennisi, shaxmat-shashka kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.


«Hokim va yoshlar» loyihasida tuman hokimi yoshlar bilan uchrashib, ularni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

**Nurbek QIDIRALIYEV**

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligiga

Erkin Vohidovning mustaqillik yillarida yozgan «Bir nihol» she'rida shunday satrlar bor:

«Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,  
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st»...



Har gal mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning kitoblarini qo'limga olsam, nabiram Anvar: «Bobojon, menga ham o'qib bering», deb so'rayveradi. Shunda unga adibning bolalarga atalgan she'rlaridan o'qib, tushuntirishga harakat qilaman. Nabiram bu quvnoq va sermazmun she'rlarni har gal miritiqib tinglaydi.

Bo'yin cho'zib Qarag'ay,  
Yon-atrofga Qaragay.  
Der u:  
«Barcha daraxtdan,  
Baland akang Qarag'ay»...

yoki «Terak» she'riga quloq tutaylik:

Men terakman,  
Terakman.  
Men hammaga kerakman.  
Osmon mening  
Yelkamda,  
Men olamga tirkakman.

«Qarag'ay» she'rida kekkayish, «Terak» she'rida esa maqtanchoqlik aks etgan. Shoir ushbu she'rlarida ishoralar va so'z o'yinlaridan unumli foydalanganligi ko'rinib turibdi. Qarag'ay ko'rinishidan baland, yuksak daraxt. U bo'yin cho'zib, bekorga yon-atrofga qaramayotgan ekan. Uning bo'y-bastini, salobatini ko'z-ko'z qilib, kekkayib turishidan maqsad – yonidagi barcha daraxtlardan ustun bo'lishni xohlayotganligi ayon bo'ladi. Shunda ayrim do'stlarimizning kekkayib yurganlari yoki terakka o'xshagan maqtanchoqlar ko'z oldimizga keladi,

Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u havo nimaga kerak?  
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam,  
O'tma g'urur ostonasidan.  
Piyolani inson shuning-chun,  
O'par doim peshonasidan...

Ushbu she'rning yozilganiga 60 yil bo'ldi. Oltmish yilki, bu she'r kamtarinlikdan, kamtar bo'lishdan bebaho saboq berib keladi. Odamlarni oddiy va kamtar bo'lishga chorlaydi. Kamtarlikda hikmat ko'pligidan qayta-qayta ogoh etadi. Kamtar odam h a y o t d a hamisha o'z o'rini topadi, atrofdagilarning hurmatiga sazovor bo'ladi.

«Archa» she'rida bag'rikenglik, samimiylik tarannum etilgan. «O'rik», «Yong'oq», «Nashvati» she'rlarini o'qisangiz, yanada dilingiz yayraydi. Va, albatta, bu daraxtlarning mevalaridan tatib ko'ringiz keladi. Hozir sizlarda shunday holat yuz berdimi? Kimdir qantak o'rikning turshagidan, kimdir yong'oq, kimdir nashvatini paqqos tushirmoqchi.

Aziz bolajonlar! O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori qabul qilinganidan xabaringiz bor. Bu faqat adabiyotimizning emas, balki butun xalqimizning katta to'yi va tantanasidir.

Shuningdek, «Kunlar sekin o'tadi», «Sharq ertagi», «Oyga uchsak...», «Kulgimizdan yangrasin olam», «Hayot yo'lidan» singari she'rlarda ham bolalarning beg'ubor, betakror va hayratli voqealarga to'la olami mahorat bilan qalamga olingan. Ko'ryapsizki, Erkin Vohidovning she'rlari, g'azallari, dostonlari

Erkin akaning she'rlari aslida, bolalarga ham, kattalarga ham tushunarli. Uning she'riyatida olaning beg'ubor dunyosi bor, kattalarning teran qalbi aks etib turadi.

Bolajonlar, kelinglar, yaxshisi, Erkin Vohidovning she'rlar olamiga birgalashib sayr qilaylik. Ijodiy safarni adibning Siz – bolalarga atab yozgan she'rlaridan boshlasak, yaxshi bo'lardi... U kishining ayrim she'rlari maktab darsliklariga kiritilgan. Ana shunday she'rlardan biri «Ukamning «jangi» deb ataladi:

Ukam minib «saman oti»ni,  
«Qilich» ushlab chiqibdi jangga.  
– Beshta dushman samolyotini,  
Yiqitdim, deb maqtandi menga.

Avvaliga kuldin rosa ham,  
Hazildir, deb ukam so'zlari.  
So'ng hovliga chiqib qarasam,  
Yotar edi besh o'lik ari.



She'rni eshitishingiz bilan yuzingizga tabassum yugurdi. Ana shunaqa, Erkin bobo kuldirishga juda usta edi. Shu bois u kishining «Donishqishloq latifalari» va «Matmusaning she'rlari» turkumida yozganlari juda mashhur bo'lib ketgan. Siz ham sodd va no'noq Matmusaning xatti-harakatlari va qiliqlaridan mazza qilib kulgansiz, to'g'rimi? «Matmusaning lagani», «Matmusaning tandiri», «Matmusa – rassom», «Matmusaning bog'i» singari she'rlari davralarda o'qilaverib, she'rxonlarning ma'naviy mulkiga aylangan.

Agar bilsangiz, Erkin boboning «Daraxtlar suhbatlari» turkumidagi durdona she'rlar allaqachon sizlarning sevimli misralaringiz qatoridan o'rin olgan. Shundaymi? Masalan, «Qarag'ay» she'rini olaylik:

to'g'rimi?! Lekin kekkayishning ham, maqtanchoqlikning ham aslo foydasi yo'q. Hayotda bunday yomon odatlarga berilganlarning holi voy bo'ladi. Yaxshisi, shoirning kamtarlik ulug'langan «Majnunol» she'ridan ibrat olish kerak:

Dam olsangiz  
Soyamda,  
Men sizlardan  
Mamnun tol...

deydi u. Shoir boboning «Kamtarlik haqida» yozgan she'rlarini birga o'qiyimiz:  
Garchi shuncha mag'rur tursa ham,  
Piyolaga egilar choynak.

Hay-hay, to'xtang, xayolga berilmang.  
Bu she'r, xolos... Aslida, bu she'rning sehrli kuchi...

Adibning «Chevar qiz» she'ri tahsinga loyiq. She'rning nomidan kimga bag'ishlangani ayon bo'lib turibdi. Chevar qiz Lolaning qancha ko'p paxta terгани va buni hech kim so'ramayotganidan biroq o'ksinadi-yu, lekin xafa bo'lmaydi. She'r shunday ajoyib misralar bilan yakunlanadi:

Lolaxonni gazetaga,  
Yozmasi ham bo'ladi.  
U chevar qiz, u shirin qiz,  
Buni hamma biladi.

hayot bilan hamnafas. Bu hamisha insonni yashashga chorlaydigan she'riyat. Birgina «O'zbekim» qasidasi xalqimizni ulug'lagan va osmon qadar yuksaltirgan asar sifatida adabiyotimizdan mustahkam o'rin olgan. Uni «Millatni uyg'otgan qasida» ham deyshadi.

Hali qancha-qancha avlodlar Erkin boboning teran va barhayot she'riyatidan bahramand bo'ladi. U kishi yozib qoldirgan umrboqiy hikmatlardan hayratga tushadilar.

Ashurali JO'RAYEV,  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan jurnalist

# AJABTOVUR SAYOHAT

**Bolalar orasida qiziqarli sayohatga chiqishni istamaydigani topilmasa kerak. Agar u turli sarguzashtlarga boy bo'lsa-chi?!**



Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 171-umumta'lim maktabi rahbariyati hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisi Iroda Hamidova tomonidan tashkil etilgan «Kitoblar olamiga sayohat» tadbiri ham bir-biridan qiziq voqealarga boy bo'ldi. Chunki Iroda opa rahbarligidagi 4-«A» sinf o'quvchilariga sayohat chog'i bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev hamrohlik qildi.

Yana bir e'tiborli jihati, mazkur sinfda 45 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Quvonarlisi esa, ulardan 40 nafari 2017-yil uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishibdi. Qiziqarli sayohat chog'i ular Tursunboy boboning bolalik yillari haqida hikoya qilib, shoirning quvnoq she'rlaridan namunalar o'qidilar.

O'z navbatida, Iroda opaning sa'y-harakati bilan sayyor video guruhi tomonidan suratga olingan rolikda namoyish etilgan O'zbekiston Xalq shoiri Anvar Obidjon hamda bolalar shoirasi Kavsar Turdiyevaning dil so'zlari adib haqidagi bolalar taassurotlarini yanada boyitdi.

Shoir qalamiga mansub «Adolatli qozi» ertagi asosidagi sahna ko'rinishi esa yuqori darajada tayyorlanganligi bois ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Tadbir so'ngida sevimli shoirimiz o'quvchilarga o'zlarining yangi kitoblaridan sovg'a qildilar. O'sha pallada bolalar ko'zidagi quvonchni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmadi.

**Yusuf ABDULLAYEV**

## 4-«A» - ENG BILIMDON JAMOA

**Umumta'lim maktablarida dekabr - boshlang'ich sinflar fan oyligi deb belgilangan.**

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabida «Konstitutsiya va qonunchilik islohotlari» deb nomlangan intellektual bellashuv bo'lib o'tdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari Mashrabxon Umarova va Ra'no Nuriddinova tomonidan tashkil-lashtirilgan ushbu tadbirga ota-onalar, Yakkasaroy tuman hokimligi, «Muqimiy» nomli mahalla fuqarolar yig'inidan mehmonlar taklif etildi.

4-«A» sinfining «Qonun», 4-«B» sinfining «Farmon», 4-«V» sinfining «Adolat» hamda 4-«D» sinfining «Huquq» jamoalari belgilangan 6 ta shart bo'yicha huquqiy bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.



**N. SULTONOV olgan suratlar**

Bellashuvda 4-«A» sinfining «Qonun» jamoasi yuqori natijaga erishib, «Eng bilimdon jamoa» diplomiga sazovor bo'ldi. Qolgan guruhlar ham «Eng zukko», «Eng topqir» va «Eng faol jamoa» nominatsiyalarini qo'lga kiritishdi.


Yakunda maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Salima Ismoilova bellashuv ishtirokchilarining huquqiy savodxonliklarini yuqori bo'lishida «Tong yulduzi» gazetasi o'g'irni, qolaversa, bilimli o'g'il-qizlar bu nashrning chin muxislari ekanini alohida ta'kidladi. Bilimdonlarga esdalik sovg'alari topshirib, barchani kirib kelayotgan Yangi yil bilan qizg'in qutladi.

**Dilorom HOTAMOVA**

**Yaqinda maktabimizda boshlang'ich sinflar fan oyligi doirasida uslubiy birlashma raisi Muattar Yoqubova boshchiligida amaliy-o'quv seminari o'tkazildi.**

## BILIMLAR POYDEVORI

Unda boshlang'ich sinf o'qituvchisi Feruza Mirmahmudovaning 1-3-sinf o'quvchilari uchun multimediali darslarni tashkil etish bo'yicha ma'rufasi tinglandi. Shu sinf o'quvchilari uchun ona tili, o'qish va atrofimizdagi olam fanlaridan yaratilgan metodik qo'llanma va multimedia ilovalardan dars jarayonida foydalanish hamda 2016-2017-o'quv yilidagi vazifalar haqida hamkasblarimiz bilan o'zaro fikr almashdik.



Tadbirda 3-«G» sinfidan Bashorat Abrorjonova, Soliha Xayrullayeva, Muslima Sobirova, Fazilat Solihjonova, Biloliddin Naj-

middinov, Roziya Elshodova, Shamshod Komiljonov, 4-«G» sinfidan Jaloliddin Tojiboyev, Saodat Yo'ldosheva, Odil Abdullaxo'jayev, Mubina Qodirjonova kabi o'quvchilar tomonidan ijro etilgan she'rlar, qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari tomoshabinlar tomonidan olqishlandi.



**Zarifa ABDUAZIMOVA, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

## KITOB - DONO MUALLIM

**Kitob inson ruhiyatini, uning intellektual salohiyatini boyituvchi javohirlar xazinasidir.**

Kitob o'qish orqali insonda hayotga, borliqqa bo'lgan teran tafakkur dunyoga keladi. Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 307-DIUMning 3-«G» sinfida «Kitob - dono muallim» mavzusida bo'lib o'tgan ma'naviyat soatida bu borada alohida so'z yuritildi.

Dars jarayonida o'tkazilgan ma'naviy o'yin, savol-javob, sahna ko'rinishlarida faol ishtirok etayotgan o'quvchilarda tasavvurlarini boyitayotganini sezish mumkin.

- Bola ongida kitobga mehr alifbe saboqlarini o'zlashtira boshlaganda shakllanadi, - deydi sinf rahbari Rahima Karayeva. O'quvchilar o'rtasida «Eng yaxshi kitobxon», «Oilaviy kutubxona» kabi tanlovlar, «Men yoqtirgan qahramon» mavzusida insholar tanlovlarini o'tkazib turamiz.

- Kitob o'qish mening eng sevimli mashg'ulotim, - deydi shu sinf o'quvchisi Madina Suyunova. - Kelajakda shifokor bo'lmoqchiman. Bugun-

gi darsimizda «Yosh hakim» sahna ko'rinishida buyuk tabib bobomiz Ibn Sinoning kitobga bo'lgan ixlosi ko'rsatib berildi.

Qizg'in bahs-munozara shaklida tashkil etilgan ma'naviyat soati har bir o'quvchi qalbida kitobga nisbatan o'zgacha mehr uyg'otgan bo'lsa, ne ajab?!

**Zubayda MAMATQULOVA**





**QISH**

Ertalab tursam, qiziq  
Manzara hosil bo'ldi.  
Derazamda oq chiziq –  
Qorbobo misli kuldi.

Tashqarida daraxtlar,  
Oq paltolar kiyishgan.  
Tarnov to'lib sumalak –  
Ko'kdan go'yo oy tushgan.

**Gulsanam FATULLAYEVA,**  
Buxoro viloyati, Vobkent  
tumanidagi 39-umumta'lim  
maktabining 5-sinf o'quvchisi



**Qo'lni qo'lga  
ber, tengdoshi!**

Qo'lni qo'lga ber, tengdosh,  
Olg'a qadam tashlaylik.  
Ko'zga surtib tuprog'in,  
Shu yurt uchun yashaylik.

Biz – buyuk yurt farzandi,  
O'zbek o'g'il-qizimiz.  
Buyuklarning avlodi,  
Shu Vatanning yuzimiz.

Qo'lni qo'lga ber, tengdosh,  
Ertangi kun bizniki.  
VATAN degan sajdagoh,  
Go'zal bo'ston bizniki.

**Gulhayo ISMOILOVA,**  
Xorazm viloyati, UrDU qoshidagi  
2-akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi



**QUTLUG'  
YIL**

Bugun o'zgacha bir kun,  
Kirib kelar Yangi yil.  
Bizlar kutgan qutlug' yil,  
Undan zavqlanadi dil.

Yasatilar archamiz,  
Shodon, xursand barchamiz.  
Qorbobo, Qorqiz bu dam,  
Quvonch ulashar biram.

Yangi yilni qutlaymiz,  
Sho'x qo'shiqlar kuylaymiz.  
Xush kelibsan, Yangi yil,  
Bayramlarga to'lar dil.

**Iqbolxon MUHAMMEDOVA,**  
Toshkent shahar, Yakkasaroy  
tumanidagi 73-umumta'lim mak-  
tabining 5-«A» sinf o'quvchisi



**YANGRASIN  
DILLAR**



Yangi yil muborak ey, ona xalqim,  
Zamin nurga to'lsin qutlug' tashrifdan.  
Orzular ro'yobin ko'rsin shod dillar,  
Kelajagi buyuk, qutlug' elimdan.

Dehqonning qo'lga bersin baraka,  
Bog'lardan bol tomsin, gullasin diyor.  
Yurtim jahon ichra tengi yo'q, yakka,  
Kelajagi buyuk elim baxtiyor.

Qorbobo qopiga to'lsin kitoblari,  
Ilm ziyosidan yashnasin dillar.  
Yuz-u ko'zimizdan faqat baxt kulsin,  
Qutlug' yilimizdan osmon ko'ngillar.

**Doniyor ABDUAHATOV,**  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi  
2-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchisi

**BOLALAR  
QUVONCHI**

Kirib kelsa Yangi yil,  
Quvonadi bolalar.  
Bezaydilar archani,  
Quvontirib barchani.

Yaltiroq o'yinchoqlar,  
Qamashtirar ko'zlarni.  
Osilgan har zarchalar,  
Yashnatadi archani.

**Mubina HOTAMBEKOVA,**  
poytaxtimizning Yakkasaroy  
tumanidagi 144-umumta'lim  
maktabining 4-«A» sinf  
o'quvchisi



**MOMOLARIM  
OLTIN SO'ZI**

Sen – ajdodlar mehri qorishgan tuproq,  
Ilm osmonida chaqnagan quyosh.  
Sen – jannat eshigin yoritgan chiroq,  
Vatan, pok dilingga men egayin bosh.

Qalbinga ijodan otash solgan kuy,  
Osmonimning Quyosh, Oy, Yulduzisan.  
Rayhon isi kelar asl o'zbek uy,  
Momolarim aytar oltin so'zisan.

Men mehr bog'ingda o'smoqdaman shod,  
Xizmatim qilmoqqa shaylanay, Vatan.  
Sen – faxr hissimga ummonsan, hayot,  
Men sening faxringga aylanay, Vatan!

**Mashhura NURMATOVA,**  
Jizzax shahridagi Sayiljoy akademik litseyi o'quvchisi



**Qorqiz**

**bo'lishni istagan qizcha**  
(Yangi yil ertagi)

judayam xohlar ekan.  
Yil oxirlab, Yangi yil ki-  
radigan kun ham yetib  
kelibdi.

– Dadang bugun  
kelolmaydi, chog'i, –  
debdi onasi qiziga, –  
ishxonada navbatchi  
ekan. Yangi yilni o'zimiz  
kutib olamiz, xo'pmi,  
qizim...

Qizcha, «Mayli», de-  
ganday g'amgin bosh  
qimirlatibdi. Anchadan  
buyon qizini bir quvon-  
tirish maqsadida yurgan  
dadasi esa kechga tomon uyga  
Qorbobo bo'lib kirib kelibdi. Qara-  
sa, uning yonida Qorqizi yo'q ekan.  
Shunda Qorbobodan: «Sizning  
Qorqizingiz qani?» deb so'rabdi.

Qorbobo: «Mening Qorqizim yo'q,  
xohlasang, seni Qorqiz qilib olishim  
mumkin. Qorqizlar, odatda chiroy-  
li va shirinso'z bo'lishadi. Sen esa  
shunday qizchaga o'xshaysan»,  
debdi. Qizaloq bu taklifga darrov  
rozi bo'libdi. Shunday qilib, Yangi  
yilni ular birgalikda kutib olishibdi.

Ammo bayram shodiyonasi o'ta-  
yotgan bir paytda Qorqiz rolini  
bajarayotgan ziyarak qizaloq Qor-  
boboning uzoq qorli o'lkalardan  
kelgan mehmon emasligini, balki  
qardron dadajonisi ekanligini sezib  
qolibdi.

Vaqt degani oqar suv. Hash-pash  
deguncha oradan bir yil o'tib, yana  
Yangi yil kelibdi. Bu safar qizcha-  
ning dadasi uyda ekan.

Bir mahal eshik taqillab qolibdi.  
Dadasining ishorasi bilan eshikni  
yugurib borib qizchani o'zi ochib-  
di. Uyga hassasini do'qillatib uzun  
soch-soqolli Qorbobo kirib kelibdi.  
Negadir, bu Qorbobo ham Qor-  
qiz edi. Shunda qizcha: «Qor-  
qizingiz yo'qmi?» deya qiziqsinib  
so'radi. Ajablanarlisi, bu Qorbobo  
ham xuddi bulturgisiday:

– Yo'q edi-ya, lekin xohlasang,  
seni Qorqiz qilib olishim mumkin.  
Chunki sen chiroyli, ham shirinso'z  
ekansan!.. – deya javob qaytaribdi.

Qizcha bu taklifga xursandchilik  
bilan rozi bo'libdi.

Xullas, bu galgi Yangi yil qizcha  
uchun ham ajoyib o'tdi. Negaki,  
dadasi uyda, orzusi ham ushaldi.  
Chunki Qorbobo olis o'lkalardan  
kelgan haqiqiy edi-da...

**Munisa ERGASHEVA,**  
Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi  
17-umumta'lim maktabining 7-sinf  
o'quvchisi

S. FARMONOV chizgan rasm

N. SHAVKATOVA chizgan rasmlar

Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida 15-Mehribonlik uyi bor. Maskan tarbiyalanuvchilari tumandagi 3-umumta'lim maktabida ta'lim oladi.

## BOLALIK – BEG'UBORLIK

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkillashtirishda fan va sport to'garaklari faoliyat yuritadi. Gimnastika va trenajor binosi yoshlarning sport bilan hamnafas ulg'ayishida muhim omil bo'lmoqda.

Yaqinda maskanda «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan «Bolalik – beg'uborlik timsoli» tadbiri o'zgacha ruhda o'tdi. Unda o'quvchilar nafaqat sport musobaqalarida, balki

dov, Bobur Ne'matov, Shuhrat To'liqinov hamda Ulug'bek Axmetovning ijrosidagi sho'x kuylar barchani xushnud etdi. 3-guruhdan Anastasiya Molokova, Sevinch Abdukarimova «O'zbekiston» she'rini yod olishdi. Zakiy Larionov va Rustem Sulaymonov rubobda kuy chalganida, «Shodiyo» raqs dastasi qizlari Umida Boltaboyeva, Mohlaroyim Shukurova, Durbona Ergasheva, Monika Dodarbekova va Munavvar Jo'rayeva sahnaga chiqqanida, qarsak ovozi tinmadi.

Shuningdek, tarbiyalanuvchilar sahnalashtirgan «Zumrad va Qimmat» er-tagi kechaga o'zgacha fayz kiritdi.

Bolajonlarda Vatanga muhabbat, insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining hayotimizdagi o'rni

va ahamiyatini namoyon etishda bu kabi tadbirlarning ahamiyati kattadir.

Xurshida SULAYMONOVA, Dilbar IBODOVA



san'at, adabiyot yo'nalishlarida ham faol ishtirok etishdi. Jumladan, 5-guruh tarbiyalanuvchisi Durdona Ergasheva boshlovchiligidagi kechada «Doira» to'garagi a'zolari Sardor Ahme-

## YILNING ENG YAXSHI BOKSCHISI

Shveysariyaning Lozanna shahrida Xalqaro havaskor bokschi assotsiatsiyasi Ijroiya qo'mitasi yig'ilishi va AIBning 70 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimda Hasanboy Do'smatovga 2016-yil yakunlariga ko'ra, «Yilning eng yaxshi bokschisi» sovrini topshirildi.



Aytish kerakki, 2016-yilgi sport mavsumi bokschiimiz uchun g'alabalarga boy bo'ldi. Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida bokschiimizning tajriba va mahoratiga dunyo tan berdi. Ular mazkur nufuzli musobaqada 3 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

Vazni 49 kilogrammgacha bo'lgan charm qo'lqop ustalari o'rtasidagi bellashuvlarda Hasanboy Do'smatov O'zbekiston sport delegatsiyasi hisobiga dastlabki oltin medalni keltirgan edi. U o'zbek bokschi orasida birinchi bo'lib Olimpiadaning eng yaxshi bokschisi sifatida Vel Barker kubogi bilan taqdirlandi.

Xalqaro havaskor bokschi assotsiatsiyasi tomonidan yilning eng yaxshi bokschisini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma o'zbek o'g'loni eng ko'p ovoz to'plab, kubalik Robeyssi Ramires va qozog'istonlik Doniyor Yeleusinovni katta farq bilan ortda qoldirdi.

Shavkat KAZAKBAYEV

## POLVONLAR BELLASHDI

Yaqinda erkin kurash bo'yicha respublika ochiq turniri o'tkazildi. Buxoroda bo'lib o'tgan ushbu bellashuvda 2001-2003- va 2004-2006-yillarda tug'ilgan o'g'il bolalar o'zaro kuch sinashdi.

Andijon, Farg'ona, Namangan, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari, poytaxtimiz hamda Qozog'iston Respublikasidan qatnashgan besh yuzdan ziyod yosh polvonlar g'oliblik uchun kurashdilar. Navoiylik sportchilardan A.Ibrohimov, A.Nabiyev, A.Mirzayev, Sh.G'ofurov, Buxoro vakillaridan A.Naimov, Sh.Komilov, A.Komilov, M.Beshimov, M.Yoqubov, A.Rahimov, Sh.Yarashhev, Sh.Sayfullayev, A.Abdullayev, samarqandlik J.Abdufattohov, J.Abdusattorov, A.O'ktamov va poytaxtdan A.Baxtiyorov, A.Sharifxo'jayevlar g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Ulug'bek SAIDOV

## OCHIQ TURNIR BO'LIB O'TDI

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda mamlakatimiz Sport kurashlari assotsiatsiyasi Toshkent shahar bo'limi tomonidan yunon-rum kurashi bo'yicha o'smirlar o'rtasida ochiq turnir o'tkazildi.

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan mazkur musobaqada nafaqat mamlakatimiz, balki Qozog'iston va Tojikiston Respublikasidan 100 nafarga yaqin yosh polvonlar kuch sinashdi.

O'n bir vazn toifasida bellashgan kurashchilar orasida Laziz Toshkentboyev, Abror Otaboyev, Jahongir Hamroyev, Eldor Karimov, Lochin Valiyev, Yerli Ayximboyev, Humoyun Mahmudov, Shofiddin Ernazarov hamda Navro'z Gulov mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Shukrulla G'ULOM

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, respublikamizda 2016-yil 10-noyabrdan 2017-yil 10-yanvargacha «Yong'in xavfsizligi oyligi» o'tkazilmoqda.



Shu munosabat bilan Ulug'bek nomidagi Toshkent xalqaro maktabida Yakkasaroy tumani IIB YOXB xodimlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Zulfiya Xolmammedova boshlab berdi.

Tadbirda tuman IIB YOXB inspektori serjant Abbas Po'latov so'zga chiqib, ayrim joylarda

## HUSHYORLIK - XOTIRJAMLIK GAROVI

ro'y berayotgan yong'inlar va uning ayanchli oqibatlarini haqida gapirib berdi. Shuningdek, yong'in xavfsizligi xodimlarining sa'y-harakati bilan hududda yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotganini aytib o'tildi.

– Ushbu tadbirdan katta taassurot oldik, – deydi 9-«B» sinf o'quvchisi Tamanno Qahramonova. – Ayniqsa, tuman yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan plakatlarining namoyish etilishi, yong'inni o'chirish bo'yicha ko'rsatilgan amaliy mashg'ulotlar bizni hamisha ogohlikka, hushyorlikka undaydi.

N. JAVHAROVA

# XUSH KELIBSAN, YANGI YIL!

**Bolajonlar, mana Maymun yili poyoniga yetib, Tovuq muchaliga o'z o'rmini bo'shatib bermoqda. Kirib kelayotgan Yangi yil haqida ko'proq bilishni, uni boshqa mamlakatlarda qay tarzda kutib olinishi haqida bilmochimisiz? Unda, marhamat, sizlarga bu borada ma'lumotlar beramiz.**

## BU MUCHALDA TUG'ILGANLAR...

Tovuq hayotni sevadigan, o'zini yaxshi ko'radigan, mag'rur parranda hisoblanadi. Tovuq yilida tavallud topganlar alohida e'tibortalab bo'lishi, chiroyli, did bilan kiyinishni yaxshi ko'rishi, xushmuomalaligi, oilaparvarligi hamda yaqinlariga g'amxo'rligi bilan e'tibor qozongan. Bu yilda tug'ilganlar hech qachon bировga yomonlik qilmasliklari bilan boshqalardan ajralib turishadi.



## FINLYANDIYA

Yozma manbalarga ko'ra, Qorbobo ayni shu mamlakatda «kashf» qilingan ekan. Finlar Yangi yilni kutishni 25-dekabr-dan boshlashadi. Afsonalar mamlakati, deya e'tirof etiladigan bu davlat fuqarolari Bayram dasturxonida, albatta, olxo'ri kiseli va pishgan guruch bo'lishi shartligiga alohida e'tibor berishadi. Chunki bu ne'matlarning yil davomida uylariga baraka olib kirishiga ishonishadi.

## VYETNAM

Bu mamlakatda Yangi yil o'zgacha kutib olinadi. Mamlakat aholisi archa o'rni-ga... xaskashlarni yasatishadi. Xaskashlar qanchalik keng va sopi uzun bo'lsa, shunchalik uylariga ko'p baraka va omad kirishiga astoydil ishonishadi. 21-yanvardan 19-fevral-ga qadar Yangi yil bayrami nishonlanadi. Vyetnamda Qorbobo Tao Kuen deb yuritiladi. Ular tilaklar aytishni antiqa usulini topishgan. Tirik karp balig'ini daryoga qo'yib yuborish asnosida unga tilaklarini pichirlab aytishadi. Chiroyli husnixatda qog'ozga yozilgan tilaklarini 12 oy davomida uy devorlariga osib qo'yishadi.

Yangi yil O'zbekistonda baribir o'zgacha shukuh bilan kutib olinadi. Bu bayramdan insonlar mo'jizalar kutishadi. Biz ham yaqinlashib kelayotgan bayramingiz bilan barchangizni muborakkobd etamiz. O'qishlaringizda omad va zafarlar tilaymiz.

**Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi**

## QORBOBO HAQIDA BILASIZMI?

Shu o'rinda Qorbobo haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltiramiz. Internet manbalariga ko'ra, Qorboboning ko'rinishi barcha davlatlarda deyarli bir xil bo'lsa-da, ular turlicha nom bilan ataladi. Masalan, Ispaniyada – Noel ota, Ruminiyada – Mosh Djarile, Gollandiyada – Sinte-Klaas, Angliya va Amerikada – Santa-Klaus, Yaponiyada – Segatsu-san, Rossiyada Ded Moroz... Bularning aksariyati o'zbekchaga tarjima qilinganda, «Ayozbobo» yoki «Qorbobo» degan ma'noni anglatadi.

Santa Klaus bilan Ded Morozning kiyimlarida o'ziga xos farqlar bor. Masalan, Santa Klausning boshida popukli qizil qalpoqcha, egnida uncha uzun bo'lmagan qizil po'stin, qo'lida qizil qo'lqop bo'lib, soqoli o'rtacha kaltalikda ko'rinishga ega. Ded Morozning boshida keng gardishli maxsus telpak, egnida yerga tekkudek uzunlikdagi mo'ynali ko'k po'stin. Qo'lida uzun hassa, oppoq, to'lqinsimon soqoli qornigacha tushib turadi.

**Adolat FAYZIYEVA**

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

### «YANGI YIL» AYLANMA KROSSVORDI



**Shaklda berilgan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:** 1. Bezandigan daraxt. 2. Kuy jo'rligida ijro etiladigan san'at. 3. Ho'l meva. 4. O'zbek maqomi. 5. Maktub. 6. Qish transporti. 7. Borliq, dunyo. 8. Chavandozlik bahsi. 9. Vaqt o'lchovi. 10. Kunning musaffo payti. 11. Mo'tabar zot. 12. Yuz yillik davr. 13. Ip gazlama. 14. Sayyoramizning Yangi yil boshlanadigan tomoni. 15. Soat bonggi. 16. Nasl, avlod. 17. Janubiy Amerikada tarqalgan to'ti zoti. 18. Amerikaning tog' o'rmonlarida yashovchi yirtqich. 19. Bahor oyi. 20. Xushbo'y pardoz suyuqligi. 21. Vyetnamda Yangi yilga berilgan nom. 22. Toshkentdagi sport inshooti. 23. Shafqat, rahmdillik. 24. Tantana, marosim. 25. Baliq urug'idan tayyorlangan yegulik. 26. Har jihatdan mustaqillik. 27. Musiqi janri. 28. O'zaro totuv munosabat. 29. Janub mevasi. 30. Yog'du, nur. 31. O'zbek xalq raqs kuyi. 32. Qishga xos yog'in. 33. Katta xona. 34. Baho, o'zlashtirish o'lchovi. 35. Urug'idan ichimlik tayyorlanadigan janub daraxti. 36. Ekran asari. 37. O'yin-kulgi kechasi. 38. Yer sharining shimoliy hududi. 39. Hafta kuni. 40. Yevropaga mansub raqs. 41. Sport turi.

**Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV**

**Muassislar:**

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Shavkat KAZAKBAYEV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV  
**Fotomuxbir**  
Zubayda MAMATQULOVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: [info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz) [www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz) Adadi - 25254 Buyurtma - S 7818

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahririyatda, mualliflarga qaytariladi. Shakli A-3, 2 Bahosi kelismagan. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08